




IJODKOR
O'QITUVCHI

ТВОРЧЕСКИЙ
УЧИТЕЛЬ

CREATIVE
TEACHER



ICI WORLD JOURNALS



Scientific Research
An Academic Publisher





«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

IJODKOR O'QITUVCHI
ILMIY-USLUBIY JURNAL

MATERIALLARI TO'PLAMI

5- DEKABR, 2025-YIL

54-SON



INDEX  COPERNICUS
INTERNATIONAL



Ushbu to'plamda "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

Mas'ul kotib:

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

Nashrga tayyorlovchi

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari

nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari

nomzodi, Dotsent

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD)

Imomqulov Tulkin Burhonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Isakova SHoxidaxon Ikramovna

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Xorijiy tillar fakulteti. Fakultetlararo chet tili kafedrası

Umarov Farxod Umirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

Nurullayeva Shoirra Kushnazarovna

Urganch Davlat universiteti, Tarix fakulteti, Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Qodirova Shaxlo Salomovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiyot falasafa

fanlari doktori, PhD

Raxmatova Dilbar Baxriddinovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,

tibbiyot falasafa fanlari doktori, PhD

Djumayev Baxodir Zayniddinovich

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,

falsafa fanlari doktori (PhD)

MUNDARIJA	
Qurbonaliyeva Shoira Maxmanazarovna <i>UCHBURCHAKLARNI YECHISHDA STUART TEOREMASI</i>	7
Qurbonaliyeva Shoira Maxmanazarovna <i>KARNO TEOREMASIGA OID MASALALAR</i>	9
Kenjaboyeva Nigora Saidmurodova Madina Musurmonqul qizi <i>IMMERSIV MUHITDA O'QUVCHILARNING NUTQ RIVOJLANISHI DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI</i>	12
Narzullaev Asilbek O'tkir o'g'li Tashtemirov Anvar Aliqulovich <i>MA'MURIY NAZORAT O'RNATILGAN SHAXSLARGA SUD ORGANLARI TOMONIDAN BELGILANGAN CHEKLOVLARGA RIOYA ETILISHINI NAZORAT QILISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	17
Mamadaminova Dildora G'ayratbek qizi <i>SHAXSNING INDIVIDUALLIGI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR</i>	24
Aminov Sharif Nasimovich Mirsalixova Guzal Aloutdinovna <i>TARBIYASI OG'IR BO'LGAN VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA AYRM XORJIY DAVLATLAR TAJRIBASI</i>	30
Orazimbetov Shingisbek Akkasinova Sayora <i>USE OF TRANSLATION IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE</i>	36
Suyunov Asliddin <i>"TEMURIYLAR SALTANATIDA SAROY MADANIYATI: BADIYIJOD, ILM VA MA'NAVIY HAYOTNING RIVOJI"</i>	40
Rahmonova Diёрахон Хайрулло қизи <i>ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ</i>	43
Eshmuratova Aynur Nurjan kizi <i>ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК КАТАЛИЗАТОР УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ НА 2025-2030 ГОДЫ</i>	48
Haqberdiyev Javohir Abduqahhor o'g'li <i>GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY HAYOTIMIZDAGI YANGILANISHLAR DIALEKTIKASINING VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHGA TA'SIRI</i>	52
Turabbaev Xusan Abdusalomovich <i>ЁШЛАР ЎРТАСИДА ЖИНОЯТЧИЛИК ПРОФИЛАКТИКАСИНING ХУҚУҚИЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ</i>	56
Allambergenov Saparbay Dauletbayevich <i>DAVLAT APPARATI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL</i>	62
Allambergenov Saparbay Dauletbayevich <i>PARLAMENT FAOLIYATI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL</i>	70
Xidirov Furqat Shukurullaevich <i>OILA-TURMUSH MUNOSABATLARI DOIRASIDAGI JINOYATLARNING TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI</i>	78
Yuldashev Kudrat Abduvaxatovich Ubaydullaev Sherzod Muzaffarovich <i>ZAMONAVIY MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI VA IMKONIYATLARI</i>	85
Allayorov Djura Haykalovich <i>JAMOANI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY RAHBARNI MULOQOT MADANIYATI.</i>	90
Turabbaev Husan Abdusalomovich <i>OILADAGI TA'LIM-TARBIYADA PSIXOLOGIK OMILLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i>	94
Allayorov Djura Haykalovich <i>ISHONTIRISH RAHBARLIK BOSHQARUVIDA MUHIM VOSITA.</i>	99
Ollaberganova Muxlisa Otaboy qizi <i>PEDAGOGLARGA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA QONUNLARIDA</i>	103

YARATILGAN IMKONIYATLAR YOKI SHART-SHAROITLAR	
Abdullayev Baxriddin Tojaliyevich Shermamatov Samandar Mirzoxid o'g'li Maxmudov Xurshidbek Qaxramon o'g'li <i>TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNI AHAMIYATI</i>	107
Sulaymanova Nigora Abduvohidovna <i>TA'LIM JARAYONIDA MULOQOT ORQALI ONGLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.</i>	110
Olimov Temir Hasanovich Abdullayeva Nodira Abdusalomovna <i>AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	116
Olimov Temir Hasanovich Zakirova Madina <i>TALABALARNI INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHGA KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	122
Madaliyev Raxmiddin Ismoilovich Jamshidjonov Shamshodbek Jamshidjon o'g'li Dusmatov Firdavs Abduvaxxob o'g'li Tursunboyev Azizbek Muxammadsoli o'g'li <i>TALABALARDA VATANPARVARLIKNI ARTPEDAGOGIKA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI</i>	127
Shaniyazova Dilafruz Sabirovna <i>INSON RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA TA'LIM INVESTITSIYASINING AHAMIYATI</i>	133
Бекназаров Жахонгир Шакирович ГЕНОМ ЧЕЛОВЕКА: ЭВОЛЮЦИЯ ИДЕЙ И ПОНЯТИЙ	136
Atabayeva Zebuniso Muxammad qizi Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich <i>QURILISH TASHKILOTLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH BO'YICHA HISOB- KITOBLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	139
Chuponkulova Sitara Bozorovna <i>RAHBARLIKDA BOSHQARUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</i>	145
Bektayeva Shoir Erkinovna <i>BOSHLANG'ICH SINFDI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR</i>	149
Yo'ldosheva Barno Xasanovna Egamova Shohida Djalilovna <i>ABDULLA AVLONIY IJODIDA TARBIYA MASALASI</i>	154
Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna Muxammadjonova Nozima Isroiljon qizi <i>VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA "BAHOR" TASVIRIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	16

ABDULLA AVLONIY IJODIDA TARBIYA MASALASI**Egamova Shohida Djalilovna***Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**e-mail: egamovashohida2@gmail.com***Yo‘ldosheva Barno Xasanovna***Oriental universiteti, Pedagogika va psixologiya**ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ma‘rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta‘lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning bu boradagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi Ushbu maqolada ma‘rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari va unda ilgari surilgan ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlari atroflicha tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, ajdodlar merosi, ilm, milliy qadriyatlar, ta‘lim-tarbiya, badan tarbiyasi, axloq tarbiyasi, fikr tarbiyasi, odob-axloq, xulq, til, Vatan.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida jadidchilik harakatining davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyatga egaligini ta‘kidlab o‘tdi. Jumladan, “Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e‘tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma‘rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar. Ming afsuski, jadid bobolarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma‘rifat fidoyilari o‘sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi. Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-

saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega" [1].

2020 -yil 18-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" Farmoyishi qabul qilindi. Ushbu hujjat shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, avvalo ajdodlarimizning xotirasiga bo'lgan yuksak hurmatni bildiradi.

Zero, mustabid tuzum tomonidan qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalari, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotirasini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida milliy urf-odat va qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas dinimizni, aziz avliyo va ulamolarimizning boy merosini teran o'rganish, ularning qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash yo'lida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, buyuk allomalarimizning ilmiy-ma'naviy asarlari insoniyatni ezgu ishlar va to'g'ri yo'lga yurishga boshlovchi ezgu chorlovdir. Qaysi davr bo'lmasin asarlaridagi dolzarblik o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmaydi. Bil'aks, el-yurt taraqqiyoti, yoshlar kamoloti uchun tengsiz dasturulamal vazifasini o'tab boraveradi. Shuning uchun ushbu nodir meroslarni o'qib-o'rganishimiz, chuqur tadqiq etib, dunyo hamjamiyatiga keng targ'ib qilish, kelajak avlodlarga yetkazish, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar sifatida xayrli amallarni bajarish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Yuqorida nomi zikr etilgan millatparvar, ma'rifat fidoyilaridan biri Abdulla Avloniy tarbiyani "Tarbiya "pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdirmakdir"[5] deb bayon etadi. Uning fikricha, tarbiya bola dunyoga kelgan kundan boshlanadi va hayotining oxiriga qadar davom etadi. Tarbiya ikki qismdan-oila va maktabda beriladigan tarbiyadan tashkil topadi. Oilada to'g'ri yo'naltirilgan tarbiya keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taydi, va aksincha, oilada tarbiyaga e'tibor qaratilmasa, bu vaziyat maktabda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini birmuncha orqaga tortadi. Abdulla Avloniy ota-onalar bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarga yangicha izoh beradi. U bolaning nafsoniyatiga tegadigan, bolaning hissiyotiga shikast yetkazadigan, uni ruhan va ma'nan ezadigan jazoni qoralaydi. Bolani sevish va unga ustalik bilan ta'sir ko'rsatish zarur, uni ishontirish vositasi bilan o'z burchini anglatish zarur, deb hisoblaydi. Farzand tarbiyasida bola yashab turgan shart-sharoit, muhit, atrofidagi kishilarning roli katta ekanligi ko'rsatiladi [5]: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur", deb javob bersak, bir kishi deyurki, "qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar", der. Mana bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar".

Ayni paytda, adib ta'lim bilan tarbiya bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham ikkisi bir-biridan o'yilmaydurgan, birining vujud

biriga boylangan jon ila tan kabidur”. Beshikdan to mozorga borguncha ilm o’rgan”-demishlar. Bu hadisi sharifning ma’nosi bizlarga dalildir. Hukamolardan biri: “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog’lidir”-demish”.

Abdulla Avloniy o’zining pedagogik nuqtayi nazarida tarbiyani uch turga ajratadi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi kabi. Bundan tashqari ularning bir-biri bilan uzviy bog’liqligini ta’kidlaydi. Adibning aytishicha, sog’lom fikr, yaxshi axloq, ilmu ma’rifatga ega bo’lish uchun avvalo badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo’lmog’i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o’qumoq, o’qutmoq, o’rganmoq va o’rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o’ng ila terisi kabidur”. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo’yib astarini yuvub ovora bo’lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog’lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo’lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib va do’xturga boqizmak kerak”.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o’stirish, fikr tarbiyasini uyushtirish juda zarur va muqaddas bir burch hisoblanadi. Shu tufayli ham ulug’ allomalarimiz fikriy tarbiyaga alohida e’tibor berganlar. Avloniy ham fozilona, hikmatlarga yo’g’rilgan tasdiqlarga suyanib, fikr tarbiyasi haqida quyidagilarni aytib o’tadi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko’p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g’ayratlik bo’lishiga sabab bo’ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so’ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog’lidir”.

Abdulla Avloniy aqlni “insonlarning piri komili, murshidi yagonasi” deb hisoblaydi. Uning fikricha, “har narsa ko’p bo’lsa, bahosi arzon bo’lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko’paysa, shuncha qimmatbaho bo’lur”,-demish”. Adib ta’kidlashicha, aql faqat insongagina nasib etgan sifatdir, jahonning ziynati oqil insonlardir. Shuning uchun ham adib kishilarni har bir ishda aql va muhokamaga tayanishga, har bir ishni va tadbirni aql tarozisiga solib, o’z o’rni va mavridi bilan amalga oshirishga chaqiradi. Insonni kamolotga yetkazishda bosh omil bo’lgan aql ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, sa’y-g’ayratni talab etadi. Avloniyning obrazli ifodasiga ko’ra, “ilm banisoli bodomning ichidagi mag’iz. Uni qo’lga kiritish uchun mag’zini po’chog’idan ajratib olish kerak. Ilm inson uchun g’oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkur qilur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur”.

Adib ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini o’rganishga, hodisalar mohiyatini anglashga chaqiradi. U ayniqsa, kitob mutolaa qilishning foydasi katta ekanligini, kitobda hikmat ko’pligini, dunyoda kitobdan yaxshi do’st yo’qligini aytib o’tadi.

Abdulla Avloniy ilmning amaliy ahamiyati haqida so’z borganda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ilmning foydasi u qadar ko’pdurki, ta’rif qilg’on bila ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong’ulig’idan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug’ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...”. Uning fikricha, har bir kishi, biror ilm, kasb-hunarni egallar ekan, uni hayotda qo’llay olishi

lozim, ana shundagina ilm-hunarning jamiyatga foydasi tegishi mumkin. U o'z ilmni amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar deb ataydi. Adibning ilmni amalda qo'llash haqidagi fikri hozirgi davrda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Buni isboti sifatida muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirishimizni o'rinli deb bilaman: “O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik - umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim - o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!” [2].

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya xususida milliy til haqidagi, “Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir”, -degan fikri diqqatga sazovordur. U har bir kishi o'z ona tilini mukammal bilishi, milliy adabiy til ravnaqi uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi. “Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir”, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u yoshlarni necha ming yillik tarixga ega bo'lgan boy madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizning munosib vorislari bo'lishga chaqiradi: “Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas, -demishlar”.

Ey ona til, aziz qadrdonim,
 Itifoti ruhim, rahmonim,
 Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
 O'lguncha ayilma, ey jonim.
 Menga ilmu adab san o'rgatding,
 Chin adib, muallim shonim.
 Millatning ruhini ko'targuchisan
 Eng muqddas karamli sultonim.

Avloniy muomala madaniyatiga, so'zlashuv odobiga ham alohida e'tibor beradi. U so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi ahamiyatini ta'kidlab, so'zning ma'nosiga alohida diqqat qiladi, hamda: “So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar”, -deydi.

Adib yoshlarni har bir so'zni o'ylab, o'z o'rnida, me'yorida qo'llashga, nutqning go'zal va ma'noli bo'lishiga erishishga, kerak bo'lganda, so'zlashdan o'zini tiyishga da'vat etadi. Ayni chog'da, adib boshqalarning so'zini ham diqqat bilan tinglashni, ularning nutqidan ibrat olishni tavsiya qiladi: “Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurgan bo'lmasa, asalari orasida g'ung'ullab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'ullamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: “Ko'p o'yla, oz so'yla”,-demishlar. Yana aytiladiki: “Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilub, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur”,- demishlar.

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,
 Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.
 O'ylasang yaxshi fikrlar, o'yla,
 Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.
 Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yo'qsa bekorlig'ing erur yaxshi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida yana axloq masalasi asosiy o'rinda turadi. U axloqiy tarbiyaning insoniyat hayotidagi buyuk rolga keng to'xtaladi va bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tarbiyalash zarur deb uqtiradi. Adibning ta'kidlashicha, tarbiya o'z vaqtida berilmasa, bolada dunyoqarash shakllangach, unga tarbiya ta'sir etmaydi:

Agar bir qushning yosh bolasini olib,
Bo'lur tarbiyat birla yo'lg'a solib,
Onasini olib asrag'on birla rom,
Qilmas, kishi sa'y qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak,
Egur bemashaqqat kishi navdani,
To'g'unchi egur kuydirib kavdani.

Abdulla Avloniyning fikricha, bolada axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit nuhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan kishilar yoshlarning mehr-shafqatli, oqibatli, sofko'ngil va odobli bo'lib tarbiyalanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.

Abdulla Avloniyning fikricha, yoshlar faqat ilm-hunar egallash bilan chegaralanib qolmasdan, hayotda odamlar bilan muloqotda, o'zaro muomalada axloq me'yorlariga rioya qilishlari kerak. Inson hamma vaqt boshqalarga yaxshilik qilish, jamiyat va xalq manfaati yo'lida xizmat qilish orzusida yashashi lozim. Agar kishi bu dunyoda yaxshi nomim qolsin desa, doimo xayrli ishlar bilan shug'ullanishi, kishilarga ozor bermasligi, yomon ishlardan o'zini saqlashi, yaxshi odamlardan o'rnak olishi lozim. Adib yaxshilikni madh qilar ekan, yomonlikni kishining eng katta nuqsoni, odamni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi illat deb hisoblaydi.

Avloniy kamtarlikni insoniylikning bir nishonasi deb biladi, yoshlarni hayotda kamtar bo'lishga, kibr-havoga berilmaslikka undaydi: "Manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida be'tibor qilur, har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham, bir pulcha qadr -qimmatini bo'lmas,-deydi adib.

Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlarida shijoatkorlikka ham alohida e'tibor beradi[6]. U shijoatni keng ma'noda tushunadi. Shijoatga botirlik, sabot-matonatilik, chidamlilik sifatlarini kiritadi. Odamning kimligini yaqqol bildiradigan xislati vijdonidir. Abdulla Avloniy insonning eng go'zal sifatlaridan biri bo'lgan vijdonlilik haqida to'xtab, o'z zamondoshlarini vijdonli kishilar bo'lishga chaqiradi. U vijdonni inson aqli va fikrining haqiqiy mezoni deb biladi. Adibning "vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgan musaffo oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilgan kishi o'z ayb va kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini axtarmoqg'a vaqti bo'lmas", - deb vijdonni ta'riflashi va har bir kishining o'z vijdoni oldida javobgar ekanligini ta'kidlashi Avloniyning iste'dodli murabbiyligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha, Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchidir.

Vatan, Vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,

Banga na g‘am, qolur avlodima uyu vatanim.
G‘ubora do‘nsa g‘amim yo‘q vujud zeri vahm,
Charoki o‘z Vatanim hokidur go‘ru kafanim.
Tug‘ub o‘san yerim ushbu Vatan vujudim xok,
O‘lursa aslina roj’ bo‘lurmi man g‘amnok.

“Hammaga ma‘lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o‘z Vatnlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya‘ni bularni tortib keturgan quvvat o‘z vatanlarining, tuproqlarining mehru muhabbatidir”,-demishlar.

Xulosa qilib aytganda, ma‘rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta‘lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning bu boradagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, ajdodlarimizning buyuk adabiy meroslari yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirilar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma‘naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur [4].

Zero, Abdulla Avloniy aytganlaridek: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyevning Sh.M. O‘qituvchilar va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil, 30-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoyishi. 2020-yil, 18-oktabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tar‘g‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.-T., 2017-yil, 24 -may.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. 2020, 30-sentabr.
5. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.-160-b.
6. Xo‘jayeva D. Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta‘limi, 2003, 3-son.-B.71.